

## YURIDIK TERMINLARNI TARJIMA QILISH JARAYONI: LUG‘ATLAR, ONLINE VOSITALARDAN FOYDALANISH VA MUHOKAMA YIG‘INLARI

**Xanimqulova Durdona Alisher qizi**

TerDu Lingvistika: ingliz tili 1-bosqich magistranti

E-mail: [durdonaxanimqulova@gmail.com](mailto:durdonaxanimqulova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yuridik terminlar ustida mustaqil ish olib boruvchi tarjimonlar tomonidan qo‘llaniladigan kichik ko‘lamdagi yuridik terminlar va bu sohadagi so‘nggi ilmiy izlanishlar muhokama qilinadi. Yuridik terminlarning asosiy xususiyatlari ilgari o‘rganilgan bilim va ko‘nikmalardan kelib chiqqan holda kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan muhokama qilinadi, hamda ularga termin sifatida qaraladi. Bundan tashqari, turli xil eng an‘anaviy turdagi lug‘atlar hamda eng so‘nggi onlayn va elektronik resurslar, jumladan, Google va muhokama yig‘inlariga o‘xshash manbalar taqdim etiladi. Ularning asosiy avfzalliklari izlanuvchilarning vaqtini tejashi, tarjima jarayonining funksionalligini oshirishi va boshqa tarjimonlar shunga o‘xshash terminlar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni qanday hal qilganliklari to‘g‘risida gap yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** tarjima jarayoni, yuridik termin, yuridik tarjima, lug‘atlar, lug‘at turlari, onlayn resurslar.

Yuridik materiallarni tarjima qilish jarayonida tarjimonlar duch keladigan doimiy va eng ko‘p vaqt talab qiluvchi muammolardan biri bu yuridik terminlarning tarjima qilinayotgan tildagi mos ekvivalentlarini (ma‘nodoshlarini) topish ekanligi hech kimga sir emas. Arntz va Picht kabi olimlarning tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarjima qilish jarayonidagi vaqtning 75% ini terminlarning ekvivalentlarini topib olish tashkil qiladi[1]. Ko‘pchilik tarjimonlar sezilarli darajadagi vaqt bosimi ostida ishlaydi va aslida esa, chuqur qiyosiy-huquqiy tahlillarni amalga oshirish uchun vaqt juda kamlik

qiladi. Tarjimonlar uchun aniq va mos ekvivalentlarni iloji boricha tezroq aniqlab olish juda muhim jarayon hisoblanadi va shu bilan birgalikda, texnologiyadagi so‘nggi rivojlanishlar ushbu jarayonni sezilarli darajada tezlashtirishga yordam beradi. Ushbu maqola tarjimonlar yuridik terminlarning ekvivalentlarini qanday yo‘llar bilan o‘rganishlari va so‘nggi 10 yil ichida qanday rivojlanishni amalga oshirishganliklari haqida bir nechta ma’lumotlarni taqdim etadi. Asosiy maqsad esa, yangi va zamonaviy uskunalar tarjima sifatini qay yo‘sinda yaxshilashi hamda ular terminologik muammolarni qanday qilib hal etishlarini ochib berishdir.

### **1. Yuridik tarjima: yuridik terminlarning ekvivalentlari**

Yuridik tarjima – bu huquqiy mazmundagi tillararo o‘zaro aloqani o‘z ichiga oluvchi maxsus tarjima turidir. Uils ta’kidlaganidek : “ Yuridik tarjima jarayonida tarjima jarayoni madaniy chegaralarni kesib o‘tadi va qaysidir ma’noda bu universal hisablanadi. Tarjimani biroz soddalashtirish orqali uni o‘ziga xos madaniy va universal komponentlarning sotsial-madaniy jihatdan aniqlangan lingvistik xulq-atvori sifatida asos qilib olishimiz mumkin”[2].

Yuridik tarjima - tibbiyot, ilm-fan yoki texnologiya kabi tarjimaning boshqa maxsus turlaridan farqli ravishda, universal komponentlardan ko‘ra ko‘proq madaniyatga xosdir. Bu ko‘p tomonlama yuridik terminologiya tizimi bilan bog‘liq, chunki huquqiy tushunchalar odatda milliy huquq tizimining mahsulidir. Yuridik tizimlarning o‘ziga xos tarixi, tashkil etilish tamoyillari, fikr yuritish shakllari mavjud bo‘lib, ular muayyan bir millatning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularning savollariga javob berish uchun yaratilgan. Bu holat esa shubhasiz milliy tizimlar o‘rtasidagi huquqiy tushunchalarning nomutanosibligiga olib keladi. Haqiqatni tan olib aytganda, yuridik til va yuridik tarjima bo‘yicha qilingan ishlar juda ham kam. Shuning uchun ham shu kabi nomuvofiqliklarning tabiatini chuqurroq o‘rganish zarurdir.

Eng ko‘zga ko‘ringan terminologlardan biri Sager terminlarni bilim depozitariyalari va aniq ma’lumotni aks ettiruvchi birliklarga ajratadi[3]. Shuning uchun ham terminlar murakkab tuzilmalar tarkibiga kiritilgan va kognitiv lingvistika

bunday tuzilmalarning qanday tashkil etilganligini hamda ular qanday ma’no kasb etishini o‘rganadi.

Umuman olganda tarjima strategiyalari xorijiy lashtirish ( xorijiy tilga yo‘naltirish) va xonakilashtirish (tarjima qilinayotgan tilga yo‘naltirish) kabi usullarni o‘z ichiga oladi. Buncha birinchisi, ya’ni xorijiy tilga yo‘naltirish usuli xorijiy termin ekanligiga ishora qilsa, ikkinchisi esa tarjima qilinayotgan tildagi madaniyatga moslashishni o‘z ichiga oladi[4].

Xulosa qilib aytgandigan bo‘lsak, agar nomuvofiqlik darajasi juda katta bo‘lmasa, tarjimon tarjima qilinayotgan tildagi tabiiy ekvivalentni topishga harakat qilishi kerak yoki, boshqacha qilib aytganda, huquqiy tizimning ma’lum bir kontseptsiyasi bilan bir xil funksiyaga ega bo‘lgan maqsadli huquqiy tizim yoki institutni belgilovchi atamani topishi zarur. Tarjima qilinayotgan tilga yo‘naltirilgan ekvivalent o‘quvchiga bilimlarini faollashtirishga va unga tanish bo‘lgan terminlar orqali notanish terminlarni o‘rganishga yordam beradi. Yuridik terminning ekvivalenti atamaning xususiyatlarini , ya’ni to‘g‘ri huquqiy tizim yoki bilim bazasida paydo bo‘luvchi o‘ziga xos qisqa va amaliy ma’noni ko‘rsatishi kerak.U to‘g‘ri ishlashi uchun nutqda uni nimaga tegishli ekanligini nazarda tutuvchi qandaydir konventsiya(kelishuv) bo‘lishi zarur. Ekvivalentlarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular nutq jamoasi tomonidan qabul qilinadi, qayta-qayta qo‘llaniladi va kognitiv tartib sifatida mustahkamlab turiladi. Ekvivalent o‘rnatilganda tarjimon undan foydalanishi uchun, u ko‘p hollarda majburiy yoki professionallik belgisiga ega bo‘ladi.Tarjimon terminlarni ajratib olishi, ekvivalentini topishi va uning qanchalik to‘g‘ri o‘rnatilganligini tekshirishi kerak.

## **2. Terminlarni ajratib olish: yuridik terminlarning mavjud ekvivalentlarini qidirish**

Yuridik tarjima bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi asosiy nazariy muammolarni ko‘rib chiqqan holda endilikda esa, uning amaliyoti va tarjimonlar tomonidan mavjud ekvivalentlarini izlash usullarini o‘rganishga o‘tamiz. Eng an’anaviylaridan hisoblangan muhokama forumlari Kudoz, Proz.com va lug‘atlardan boshlab , eng yangi elektron va onlayn vositalardan biri Googlega e’tiborimizni qaratamiz.

## 2.1 Lug‘atlar

Lug‘atlar tarjimonlarning eng qadimiy hamrohlaridan biri bo‘lib, eng qadimgi lug‘at miloddan avvalgi VII asrda paydo bo‘lgan. Mesopotamiya va G‘arb dunyosidan olingan dastlabki akkadcha so‘zlar ro‘yhati milodiy I asrda Iskandariyalik Pamfil tomonidan tuzib chiqilgan. Lug‘atlarning turli xil turlari mavjud bo‘lib, ular bir-birlaridan makro va mikrotuzilmalari jihatidan farq qiladi. Bunda yozma analiz ikki xil yo‘l bilan qisqartiladi, ya’ni bir yoki ikki tilli huquqiy lug‘atlar yordamida[5]. Huquqiy mazmundagi birinchi eng yirik ingliz tili lug‘atlari Ratell ning “Exposicions Terminorum Legum Anglorum” va Kovelning “Interpreter” lug‘atlari bo‘lib, eng qadimgi ko‘p tilli lug‘at alifbo tartibida tuzilgan “The Law-French” kitobi hisoblanadi va u 1701-yilda eng yaxshi mualliflar tomonidan tuzib chiqilgan[6].

Huquqning bir tilli lug‘atlari - bir tildagi yagona huquqiy tizimni tashkil etuvchi huquqiy tushunchalarni ta’minlaydi. Ularning tarjima uchun foydali jihati, asosan ensiklopedik bilimlar miqdoriga bo‘g‘liq bo‘lishidir. Misol uchun ba’zi “Oxford Essential Dictionary of Law”, “Longman” kabi lug‘atlar qisqartirilgan ko‘rinishdagi qisqacha ta’riflar, atamalar yoki sinonim so‘zlarning prototipik ma’nolarini ta’minlaydi. Bergenholtz va Nielsenning fikriga ko‘ra qisqacha ta’riflar, o‘z fikrini tasdiqlashni xohlaydigan ammo biror bir termin yoki so‘zlar qo‘shilmasining ma’nolariga shubha bilan qarovchi tarjimonlarga qo‘l keladi, ammo tizimli bilimlari kam bo‘lgan tarjimonlarga emas[7]. Shu bilan birgalikda, katta hajmdagi ensiklopediyalar ham mavjud bo‘lib, ular yillar davomida qayta nashrlarda ko‘rib chiqiladi va bulardan eng mashhuri 1810 betli Blackning “ Law Dictionary” ensiklopediyasidir. Hattoki, AQShliklarning Injil kitobi ham huquqiy tarjimon hisoblanadi. U hukumat manbalariga tegishli bo‘lgan tushunchalar va alohida mazmuni tashkil etadi. Ensiklopedik bir tilli lug‘atlarning afzalligi shundaki, ular tarjimonda mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni taqdim etish orqali o‘rganilayotgan til tushunchasini tushintirish uchun ichkilashtiriladi.

Ikki tilli lug‘at – o‘rganilayotgan tildagi huquqiy tushunchalarning tarjima qilinayotgan tildagi ekvivalentlarini taqdim etadi. Aksariyat hollarda esa, tarjima

qilinishi cheklangan, hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan oddiy so'zlarni va ekvivalentlar o'rtasidagi farqlarni o'z ichiga oladi. Ekvivalentlarni tanlashni osonlashtirish va kamaytirish uchun tarjimon tomonidan qilinishi zarur bo'lgan ishlar soni va vaqti qisqartiriladi, ammo buning uchun ko'p ma'lumot bo'lishi zarur.

## 2.2 Online vositalar

Internet paydo bo'lishi bilan yuridik tarjimonlarning ehtiyojlariga javob bo'luvchi yangi vositalar ishlab chiqildi. Darhaqiqat, so'nggi 20 yil ichida texnologik taraqqiyot yordamida tarjima jarayonida inqilob yuz berdi. Tarjima jarayonidagi yangi texnologiyalarning ahamiyati St. Jerome nashriyoti tomonidan Austermulning "Electronic Tools for Translation" maqolasida chop etildi. Birinchidan, kompyuterlar yozish va tahrirlash tezligini sezilarli darajada oshirdi. Ikkinchidan, Trados, World fast va Déjà vu kabi kompyuterlashtirilgan tarjima vositalari tarjimonlarga tezroq tarjima qilish va yirik loyihalarda terminologik izchilligi muhim bo'lgan tarjimalarning sifatini oshirishni ta'minladi[8]. Shuningdek, kompyuterlashtirilgan tarjima vositalari tarjimonlar o'z tarjimalarini saqlaydigan yoki tashqi xotiraga import qila oladigan funksiyalarni ham taqdim etdi. Trados Concordance yordami bilan tarjimon tarjima qilinishi kerak bo'lgan termini qidirish va u avvalgi kontekstda qanday tarjima qilinganligini ko'rish kabi imkoniyatlardan foydalana oldi. Trados Multiterm yordamida tarjimon mijoz yoki loyiha uchun lug'atlarni yaratishi mumkin bo'ldi. Bundan tashqari, tarjimonlar ko'pincha "Eurodicautom" kabi elektron termin banklaridan foydalanadi.

Va albatta, Internet tarjima jarayonida alohida o'rin tutadi. Google, Proz.com, Translatorscafe kabi onlayn vositalar tarjimonlarning ekvivalentlarni tanlash jarayonini osonlashtiradi va ularni qidirish vaqtini tejaydi. Onlayn huquqiy to'plamlar nufuzli bilimlar bazasi bo'lib xizmat qiladi. Yevropalik tarjimonlar uchun EUR-Lex eng muhim ma'lumotlar bazasidan biri hisoblanib, tarjimonga qonun hujjatlarini ikki tilda ko'rishga imkon beradi. Shunday qilib, bu ma'lumotlar bazasi parallel korpus sifatida xizmat ko'rsatadi[9].

Qidiruv mexanizmlari - tarjimonga internetda joylashtirilgan bir qancha turli xil veb-saytlarni qidirish imkonini beradi. Internet- lug‘atlar, ensiklopediyalar va dolzarb huquqiy ma’lumotlarni qidirib topish vositasidir. Ushbu vosita zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olish uchun kerak bo‘ladigan vaqtni sezilarli darajada tejaydi. Internetda ko‘p tomonlama yoki ma’lum bir sohadagi hattoki, lingvistik ma’lumotlarni ham topish imkoniyati ham mavjud.

Internet – bu ulkan korpus hisoblanib, solishtirma va parallel hujjatlarni o‘z ichiga oladi. Laviosa va Avellis nazarda tutganidek : “ Solishtirma korpuslar odatda, tarjima qilinayotgan tilda foydalaniladigan ekvivalentli terminlar va iboralarni aniqlash uchun foydalidir”[10]. Tarjimon nafaqat berilgan iboraning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tekshirishi, balki dunyoning boshqa qismlarida uning odatdagi va belgilanmagan shakllarini ham tekshirishi mumkin. Bu xususiyat bir tillilikning kutilgan afzalligi hamdir. Ammo Googlening qo‘llanilishi stilistik va grammatik maslahatlardan ancha uzoq bo‘lib, u asosan terminologiyani qamrab oladi. Birinchidan, tarjimon mijoz veb sahifasidan kompaniya ichidagi tilini ko‘rib chiqishi mumkin. Ikkinchidan, tarjimon veb sahifalarni tekshirish orqali muassasa nomlarining rasmiy tarjimalarini ko‘rib chiqishi mumkin. Misol uchun, Polsha Konstitutsiyaviy Tribunali kabi.

Bundan tashqari Googledan ma’lumotni izlash, lug‘atda topilgan ekvivalentlarni tanlashni osonlashtirishi ham mumkin. Lug‘at kontekstsizlashtirilgan leksik birliklarni taqdim etganligi sababli, qidiruv tizimi, potensial ekvivalentlar, tipik foydalanish konteksti va geografik kelib chiqishlarni toraytiradi. Masalan, polyak tilidagi akcjeuprzywilejowane (muayyan huquqlarga ega bo‘lgan aksiyalarning eng yuqori darajadagi turi). Lug‘at bu ma’noda quyidagi ekvivalentlarni o‘z ichiga oladi: imtiyozli aksiyalar, avfzal ko‘riladigan aksiyalar, yuqori darajadagi aksiyalar. Tarjimon bunday hollarda Buyuk Britaniyalik mijoz uchun eng mos keluvchi ekvivalentni qidiradi , ammo bu ma’lumot lug‘atga kiritilmagan bo‘ladi. Googlening til uskunalari paneli tarjimon uchun maxsus tilni qidirishni cheklovchi maxsus tillar va mamlakatlarni qidirsh panelini o‘z ichiga oladi. Lug‘atdagi har bir ekvivalentlar Buyuk Britaniya va AQSh da joylashgan ingliz tilidagi veb sahifalar tomonidan tekshiriladi.

### 2.3 Muhokama yig‘inlari

Muhokama yig‘inlari – tarjimonlar boshqa o‘z kasbdoshlaridan terminologik savollarni so‘raydigan interaktiv vositadir. Shunday muhokama yig‘inlaridan biri ProZ.com bo‘lib, u o‘z a‘zolariga xizmatlarini reklama qilish imkoniyatini beradigan, tarjima ishlari bilan shug‘ullanadigan global tarjima hamjamiyati hisoblanadi. U tarjimonlarga terminologik savollarga javob topish va oldingi a‘zolarning lug‘atlaridan foydalanish imkonini beradi. ProZ.com ning murakkab versiyasi ham mavjud bo‘lib, u KudoZ deb ataladi. Ushbu takomillashtirilgan versiya saytdagi mavjud ta‘rifga ko‘ra tarjima qilish uchun murakkab hisoblangan terminlarni tarjima qilish uchun bepul yordam ko‘rsatadi.

Tarjimon savol so‘raydi va e-maillaridan xabarnomani olgan boshqa a‘zolar o‘z javoblarini yuboradi yoki istalgan mavjud javobga o‘z mulohazalarini qoldiradi. Aksariyat hollarda, javoblar ekvivalentlardagi mantiqiy asosli ma‘lumotlarni ta‘minlaydi. Javob beruvchi tomonidan to‘plangan ballar uning profilida mutaxassislik belgisi sifatida sohalar bo‘yicha taqsimlanadi. A‘zolar ularning fikricha noto‘g‘ri deb hisoblaydigan javoblarni qoralash imkoniyatiga ham egadir. Natijada esa, ko‘p hollarda bu javoblarning sifati yaxshilanishiga olib keladi. Bundan tashqari, ilgari savollar va javoblar bir joyda saqlanadi va ularni qidirish mumkin bo‘ladi, hamda shuning uchun ham ular eng ko‘p uchraydigan terminologik muammolar lug‘ati sifatida ish olib boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarjimonlar tomonidan e‘lon qilingan savollar bo‘yicha munozara yig‘inlarida ko‘proq tadqiqot o‘tkazish zarur hisoblanadi. Bunday savollar ko‘plab tadqiqot materiallarini ta‘minlaydi va professional tarjimonlar duch keladigan muammolar haqida tushunchalarni beradi va aks holda, bunday tushunchalarni olish mushkul bo‘lib qolishi mumkin. Savollar ularning ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi, ammo javoblar qabul qilish jarayonining mantiqiy asoslarini ko‘proq yoritib beradi. Yuqorida aytib o‘tilganidek ,ba‘zi savollar

terminologik muammolarni tahlil qilish doirasidan tashqariga chiqadi va umumiy tarjima yuridik tarjima jarayonini kengaytirishi mumkin.

## **XULOSA**

Yuqoridagi munozaralar terminlarni ajratib olish jarayoni qanday bo‘lganligini va so‘nggi o‘n yil mobaynida yozma yuridik tarjima jarayonining qanday qilib lug‘atlardan elektron va online vositalarga o‘tib, inqilob qilganligini ko‘rsatadi. Bozor talablari, raqobatning kuchayishi va tarjimaning o‘ziga xosligi jarayonlarining o‘zi tarjimonlarni qidiruv tizimlari va online muhokama yig‘inlariga o‘xshash tezroq, ishonchliroq va interaktiv bo‘lgan vositalarni izlashga majbur qildi. O‘zlariga zarur bo‘lgan ma’lumotlarni izlash bo‘yicha soha mutaxassislari bo‘lishni tarjimonlar osonlik bilan qabul qilib oldilar. An’anaviy qog‘oz lug‘atlarni taxtdan tushirgan holda, texnologik o‘zgarishlar eng afzal tanlov bo‘ldi. Shu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, barcha vositalar, an’anaviy vositalar ham elektron vositalar ham doimo bir birini to‘ldirib turadi.

Terminlarni ajratib olishda qo‘llaniladigan yangi usullar nafaqat tarjima qilish tezligini oshiradi balki tarjima sifatini oshirishga ham yordam beradi, lekin har doim birinchi navbatda tarjima sifatiga e’tibor qaratiladi. Avvalo, tarjimon uslub darajasi orqali tabiiy va idiomatik til funksionalligini oshirishi mumkin bo‘ladi. Bu alohida ahamiyatga ega bo‘lib, tarjimonlar doimo o‘z ona tiliga tarjima qila olmaydigan inversiya hodisalari va tarjima qilinayotgan tildagi xulosalarni o‘rganishlariga to‘g‘ri keladi. Ikkinchidan, yangi va zamonaviy vositalar tarjimonlarga boshqa ekspertlar qilgani kabi suhbatlashish imkoniyatini beradi va shuning uchun ham, ular ekspertlar o‘rtasidagi madaniyatlararo muloqotni osonlashtirishga imkon beradi. Tarjimonlar tomonidan osonlikcha tan olinadigan yuridik terminlarning odatiy, belgilangan ekvivalentlarini olish, professional hamjamiyat va tegishli huquqiy bilimlar tuzilmalaridagi havolalarni faollashtirishga yordam beradi. Buning natijasida esa, hech bo‘lmaganda qisman qayta tiklangan intertekstual havolalarga ega bo‘lgan standart tarjimalar paydo bo‘la boshlaydi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Alcaraz, Enrique., Hughes, Brian: Legal Translation Explained. Manchester : St Jerome Publishing, 2002, pp 40-43.
2. Alexieva , Bistra: A cognitive approach to translation equivalence. In ZLATEVA, P. Translation as Social Action. Russian and Bulgarian Perspectives. London : Routledge, 1993, pp. 101-109.
3. Austermuhl , Frank : Electronic Tools for Translation. Manchester : St Jerome Publishing, 2001, pp 40-45.
4. Avellis, Giovanna, Laviosa, Sara: A Comic Multimedia Resource for Translating Business Italian, 2001, pp 10-15.
5. Bergenholtz, Henning, Nielsen Sandro: Terms in the Language of Culture-Dependent LSP Dictionaries. In Lexicographica, 2002, vol. 18, pp. 5-18.
6. Cao, Deborah. 2007. Translating Law. Clevedon : Multilingual Matters Ltd. Encyclopaedia Britannica. 2002. [CD-ROM]. Standard Edition CD-ROM.
7. Enberg , Jan: Legal meaning assumptions – what are the consequences for legal interpretation and legal translation? In International Journal of the Semiotics of Law, 2002, vol. 15, no. 4, pp. 375-388.
8. Evans, Vyvyan: Lexical concepts, cognitive models and meaning-construction. In Cognitive Linguistics, 2006, vol. 17, no. 4, pp. 491-534.
9. Gizbert- Studnicki , Tomasz: Problem przekładu tekstów prawnych. In Dziedzictwo prawne XX wieku. Księga pamiątkowa z okazji 150-lecia TBSP UJ. Zakamycze : Kraków, 2001, pp. 41-55.
10. Jamieson , Nigel : Source and Target-Oriented Comparative Law. In The American Journal of Comparative Law, 1996, vol. 44, pp. 121-129.